

Sitorai Moxi Xossa Buxoro so‘nggi amirlarining yozgi qarorgohi - 19 asr oxiri 20 asr boshi Buxoro badiiy kashtachilik muzeyi

Jumayeva Nargiza

Osiyo Xalqaro universiteti

"Pedagogika va psixologiya" magistratura

mutaxassisligi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bir vaqtning o‘zida Buxoro amirlarining so‘nggi qarorgohi hamda kashtachilik muzeyi hisoblangan Sitorai Moxi Xossa yozgi saroyi, uning qurilishi tarixi, obidaning qismlari hamda undagi kashtachilik namunalari haqida so‘z yuritiladi. O‘sha davr psixologiyasi, ayniqsa Islom dini falsafasi kashtachilikdagi elementlarda aks etganini ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar: : kashtachilik, ornament naqshlar, “anaxita”lar, so‘zani.

Sitorai Mokhi Khossa, the summer residence of the last embers of Bukhara - late 19th century, early 20th century Bukhara art embroidery museum

Jumayeva Nargiza

Asian International University

"Pedagogy and psychology" master's degree

student of specialization

Abstract: This article talks about the summer palace of Sitorai Mokhi Khosa, which is considered to be the last residence of Bukhara emirs and an embroidery museum, the history of its construction, parts of the monument and examples of embroidery in it. The psychology of that time, especially the philosophy of Islam, can be seen reflected in the embroidery elements.

Keywords: embroidery, ornament patterns, "anakhita", sozani.

Buxoro so‘nggi amirlarining yozgi qarorgoxi bo‘lgan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida bunyod etilgan “Sitorai Moxi Xossa” –(Oy va yulduz monand) saroyi Buxoro shaxridan 4 km shimolda joylashgan. Bu saroyning hozirgi paytda 3 qismi saqlanib qolgan:

- 1) Bosh qarorgox – Qabulxona binosi (1911-1914 yillar).
- 2) Xonai hasht - Mehmonxona binosi (1915-1916 yillar).
- 3) Kanizakxona - Yotoqxona binosi (1917-1918 yillar).

Saroyning Kanizakxona binosi 1917-1918 yillarda usta Shirin Murodov tomonidan qurilgan bulib, o‘ziga xos loyihaga ega. Bino 2 qavatli bo‘lib, ustma - tek 2 tadan 4 ta ayvonga va 12 ta xonaga ega. Xonalar o‘z vazifasiga ko‘ra xobxona – yotoqxona, dahlizxona, gul xona, xonxona, oshxona va mehmonxonalarga ajratilgan. Bino yonida "ko‘shk" - yozgi shiyp on azonchasi bilan gulxona, hammom va machit, uning janubida 53x46 m o‘lchamga ega atroflari Hypato kulrang marmaridan ishlangan saroy hovuzi joylashgan. Sitorai Moxi Xossa saroyi 1920 yil sentyabridan 1924 yilgacha BXSHJning qarorgoxi, 1925 - 1953 yillar dam olish uyi, 1953-1991 yillar sanatoriya yotoqxonasi vazifalarini bajargan. O‘tgan davr mobaynida Kanizakxona qiyofasiga sezilarli shikast yetkazilgan. O‘zboshimchalik bilan suvash, bo‘yash ishlari olib borishlari natijasida ilmiy ta‘mirga muxtoj bo‘lib qolgan edi.

Mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlarga qiziqishning ortishi va Respublika hukumatining g‘amxo‘rligi tufayli 1991 yilda saroyning 6,7 gektarlik bog‘i, Xonai Hasht-Mehmonxona va Kanizakxona-Yotoqxona binolari muzey ixtiyoriga berildi. Kanizakxona binosi ta‘mirlanib, unda XIX asr boshlari Buxoro badiiy kashtachiligi muzey - ko‘rgazmasi tashkil etildi. Xonalarda Buxoro, Shofirkon, G‘ijduvon, Nurato, Urgut, Shahrisabz, Xo‘jand, Toshkent, Jizzax kashtachilik maktablaridan namunalari qo‘yilgan. Xonalarda kattaligiga mos ravishda uy-ro‘zg‘or buyumlari va saroy jihozlari o‘rin olgan. Biroq asosiy e‘tibor

O'zbekiston kashtachilik maktablarining o'ziga xos tomonlarini ochishga qaratilgan. Ekspozitsiyani ilmiy qurish jarayonida bino xonalaridagi me'morchilik bezaklari - deraza vitrajleri golland pechlari, ganch o'ymakorligi bezaklari naqqoshlik namunalari saqlab qolingani - ya'ni ko'rgazma bino me'moriy yechimiga moslashtirilgan holda ekspozitsiya qurilgan. Ekspонатlarni asrash maqsadida bino ichkarisi tabiiy yorug'likdan himoya qilinib, sun'iy lyuminatsion lampalar bilan yoritilgan.

Buxoro Davlat muzey qo'riqxonasi fondlarida XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi Buxoro amirligining va Buxoroning hozirgi davrdagi kashtachiligining boy kolleksiyasi to'plangan. Bu to'plam yumshoq jihozlar fondiga kiradi. Hozirgi davrda muzeyda 700dan ortiq kashtachilik buyumlari saqlanadi, ular "XIX asr - XX asrlardagi Buxoro badiiy kashtachiligi muzeyi"da eng saralari 93 dona namoyish qilinmoqda.

1920 yil Buxoro amiriga qarashli 20 ga yaqin kashtachilik buyumlari Sitorai Moxi Xossa xalq amaliy bezak san'ati muzeyi qoshida tashkil etilgan. 1922 yilda Buxoro viloyat o'lkashunoslik muzeyi tashkil topgandan keyin Maorif nazorati ixtiyoridan 20 dona kashtachilik buyumlari muzeyga namoyish qilish uchun topshirilgan. Muzeyning ikkinchi davrida (1925-1927 yillarda) badiiy kashtachilik buyumlari turli korxonalardan yig'ish va sotib olish natijasida boyidi. Bu badiiy kashtachilik buyumlarini to'plashda Buxkomstaris raisi M. Saidjonov va uning o'rinbosari B.I. Butkevichlarning xizmatlari katta 20 asrning 30 — yillari boshlarida muzey xodimi P.Goncharova tomonidan uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiya natijasida G'ijduvon va Shofirkon tumanlaridan badiiy kashtachilik buyumlarining noyob turlaridan hisoblangan, joynamoz, so'zani va joypushlar to'plandi. 40 - 50 yillarda badiiy kashtachilik buyumlarini to'plash biroz kamaydi, 60 — 80 yillarda muzey ilmiy xodimlari tomonidan ko'plab badiiy kashtachilik buyumlari to'plandi. Shu yillar ichida aholidan 200 dan ko'prok badiiy kashtachilik buyumlari sotib

olindi. Hozirgi paytda milliy xunarmandchilikka qiziqish ortdi. Uning mustaqillikgacha unutilgan ko‘plab turlari qatori kashtachilik hunari ham qayta tiklandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chepeleveskaya G. L. “Suzani Uzbekistana”. Toshkent, 1961.
2. Tolstov S. P. “Drevniy Xorezm” Moskva, 1948.
3. Albaum L. I. “Balalik tepe” Toshkent, 1960.
4. Klavixo Rui de Gonsales “Dnevnik puteshestviya ko dvoru Timura v Samarkande v 1405-1406 godax, Sankt – Peterburg, 1881
5. Pisarchik A. K. “Nurota kashtasi” O‘zbekiston davlat san’at muzeyi hujjatlar fondi.
6. Vyatkin V. L. “Afrosiyob”, Toshkent, 1927
7. Grigoryev G. V. “Tus do‘ppisi”. Toshkent, 1937.
8. Kverfeld Ye. K. Cherty realizma v risunkax na tkanax i kovrax vremeni Sefevidov. Trudy Otdela istorii kultury v isskustve Vostoka Gosudarstvennogo Ermitaja. Toshkent, 1940.
9. Rassudova L. Ya. Uzbekiskiy xudojestvennyy shov. Tashkent, 1966
10. Suxareva O. A. “Suzani sredneaziatskaya dekorativnaya vyshivka” Moskva, 2006